

MAKTABLARDA BOLALAR XAVFSIZLIGI VA FAROVONLIGINING BILIM OLISHGA IJOBIIY TA'SIRI

*Boynazarova Durdona Saloxiddin qizi,
Termiz shahridagi Prezident maktabi
ingliz tili fani o'qituvchisi, magistr
durdona90.boynazarova@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17775680>*

Annotatsiya: *Maqolada maktablarda bolalar xavfsizligi va farovonligini ta'minlash asosida ularning bilim olish natijalari, ijtimoiy-emotsional rivojlanishi hamda maktabga bo'lgan munosabatiga ta'siri chuqur o'rganilgan. Tadqiqot doirasida jismoniy xavfsizlik, psixologik qo'llab-quvvatlash, sog'lomlashtirish choralari, o'quvchilar fikri va ularning maktab hayotida ishtiroki, shuningdek ota-ona-maktab hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar, nevrologik yondashuvlar va ta'lim sifatini baholash bo'yicha global tajribalar o'quvchilarning xavfsiz va qulay muhitda o'qiganda ularning diqqat, xotira, motivatsiya va o'zlashtirish darajalari sezilarli oshishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqolada O'zbekiston maktablarida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, Termiz shahridagi Prezident maktabining bolalarni himoya qilish, farovonlikni monitoring qilish va o'quvchilar fikr-mulohazalarini qadrlash bo'yicha ilg'or amaliyotlar o'rganilgan. Ushbu tadqiqot umumiy ta'lim muassasalarida xavfsizlik va farovonlikni ta'minlashning samarali strategiyalarini taklif qilib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ilgari suradi.*

Kalit so'zlar: *xavfsizlik, farovonlik, bilim olish, maktab muhiti, psixologik qo'llab-quvvatlash, akademik yutuqlar, sog'lomlashtirish, motivatsiya, talabalar fikri.*

Положительное влияние безопасности и благополучия детей в школах на обучение

Бойназарова Дурдона Салохиддин кизи,
*учитель английского языка, магистр,
Президентская школа в г. Термез,
durdona90.boynazarova@gmail.com*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматривается влияние обеспечения безопасности и благополучия детей в школах на их учебные достижения, мотивацию, когнитивное развитие и социальную адаптацию. Исследование анализирует различные компоненты школьной среды, включая физическую безопасность, психологическую поддержку, оздоровительные мероприятия, участие учащихся в принятии решений, а также сотрудничество между семьей и школой. Международные исследования и нейробиологические данные подтверждают, что дети, обучающиеся в безопасной и поддерживающей атмосфере, демонстрируют более высокие показатели концентрации внимания, памяти, эмоциональной устойчивости и академической успешности. Кроме того, в статье рассматриваются реформы, проводимые в школах Узбекистана, и приводятся практические примеры, включая передовой опыт Президентской школы города Термез по защите детей, мониторингу благополучия и вовлечению учащихся в школьные процессы. На основе анализа разработаны конкретные рекомендации по созданию комплексной системы школьного благополучия, направленной на повышение качества образования и формирование позитивного школьного климата.*

Ключевые слова: безопасность, благополучие, обучение, школьная среда, психологическая поддержка, академические достижения, оздоровление, мотивация, голос ученика.

The positive impact of child safety and well-being in schools on learning outcomes

Boynazarova Durдона Saloxiddin qizi,
English teacher, Master's Degree holder
Presidential school in Termez
durдона90.boynazarova@gmail.com

Abstract: This article provides an in-depth examination of how ensuring child safety and well-being in schools positively influences students' academic performance, motivation, cognitive development, and socio-emotional adjustment. The study explores key components of a safe and supportive learning environment, including physical protection, psychological support services, health and wellness measures, student voice and leadership opportunities, and effective parent-school col-

laboration. International studies and recent neurological research highlight that students who learn in a safe, predictable, and emotionally supportive environment demonstrate higher levels of attention, memory retention, intrinsic motivation, and overall academic achievement. Furthermore, the article reviews recent reforms in the education system of Uzbekistan and presents practical examples from local schools, particularly the innovative safeguarding and well-being practices implemented at the Presidential School in Termez. These include systematic well-being monitoring, transparent reporting mechanisms, and increased student participation in school decision-making. Based on these analyses, the article proposes practical recommendations for building a comprehensive school well-being system aimed at improving the quality of education and fostering a positive, resilient, and child-centered school climate.

Keywords: safety, well-being, learning, school environment, psychological support, academic achievements, health promotion, motivation, student voice.

Zamonaviy ta'lim tizimida maktabning vazifasi faqatgina o'quvchilarga nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmaydi. Maktab – bu bolalarning shaxsiy rivojlanishi, psixologik barqarorligi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishi va kelajakda jamiyatning faol a'zosi sifatida kamol topishi uchun muhim ijtimoiy institutdir. Shu sababli, ta'lim sifatini oshirish jarayonida o'quvchilarning xavfsizligi, emotsional qo'llab-quvvatlanishi va farovon hayot kechirishi alohida ustuvor yo'nalish sifatida ko'rilmogda.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, maktabda xavfsiz, qulay va psixologik jihatdan sog'lom muhit yaratilishi o'quvchilarning akademik muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liq. Masalan, Durlak olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlar ijtimoiy-hissiy rivojlanish dasturlari joriy etilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari

sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, xavfsiz maktab muhiti o'quvchilarda ishonch hissini kuchaytiradi, o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi va zo'ravonlik, stress yoki tashvish kabi omillarning oldini olishga yordam beradi [5].

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida aynan maktab xavfsizligi va farovonligi masalalarini ustuvor vazifa sifatida belgilab kelmoqda. Xususan, maktab infratuzilmasini yangilash, psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish, o'quvchilar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturlarini joriy etish kabi qator islohotlar amalga oshirilmogda. Termiz shahridagi Prezident maktabi ana shu islohotlarning amaliy ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda xalqaro standartlarga asoslangan xavfsizlik tizimi, psixologik qo'llab-quvvatlash modeli va o'quvchilar farovonligini

ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalar shakllangan.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolaning maqsadi – maktablarda o'quvchi xavfsizligi va farovonligini ta'minlashning bilim olish natijalariga ta'sirini chuqur o'rganish, Termiz shahri Prezident maktabi misolida mavjud amaliyotlarni tahlil qilish va xalqaro tadqiqotlar asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari O'zbekiston maktablarida xavfsiz, sog'lom va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish bo'yicha amaliy yechimlar taklif etishga xizmat qiladi.

Nazariyalar tarixi va ahamiyati

Maktablarda bolalar xavfsizligini ta'minlash va ularning farovonligini oshirish masalasi ko'p yillardan beri turli ilmiy qarashlarda o'rganib kelinadi. Quyida ushbu yo'nalishda muhim hisoblangan bir nechta nazariyalar keltiriladi. Ular maktab muhiti, o'quvchilarning psixologik holati va o'quv jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Bronfenbrenerning ekologik tizimlar nazariyasi. Bronfenbrenner bolalar rivojlanishini ko'p qatlamli tizim sifatida ko'radi. Bola faqat o'qituvchi bilan munosabati orqali emas, balki oila, maktab muhitining o'zi, jamiyatdagi qarashlar va hatto davlat siyosati orqali ham shakllanadi. Shuning uchun maktabdagi xavfsizlik faqat "binoda kamera borligi" yoki "qoidalar qat'iyiligi" bilan cheklanmaydi [2].

Masalan, o'quvchi maktabda o'zini himoyalangan his qilsa-yu, uyida doimiy tanbeh eshitib tursa, yoki aksincha – uyda tinch bo'lsa-yu, maktabda zo'ravonlikka duch kelsa, bu ikkala holat ham bolaning o'qish jarayoniga ta'sir qiladi. Ana shu yondashuv maktabning xavfsiz muhit yaratishdagi roli qanchalik katta ekanini ko'rsatadi.

"Toksik stress" tushunchasi. Garvard olimi Shonkof bolalardagi kuchli va uzluksiz stress miya faoliyatini izdan chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi [12]. Agar bola maktabda

o'zini doim bezovta his qilsa, masalan, kimdir unga doim qo'pollik qilsa, o'qituvchi uni eshitmasa yoki maktab atrofidagi muhit xavfli bo'lsa, unda uning miyasi doimiy "hushyorlik holati"da bo'ladi.

Bu holat odatiy o'rganish jarayoniga xalaqit beradi, diqqat susayadi, xotira sekin ishlaydi va mustaqil fikrlash qiyinlashadi. Shu sababli xavfsizlik masalasi ko'pincha tashkiliy deb qaralsa-da, aslida u o'quvchilarning miya faoliyati va o'rganish qobiliyati bilan bevosita bog'liq.

O'quvchining o'zini maktabga tegishli his qilishi. Godenov tadqiqotida o'quvchining "men shu maktabning bir qismi bo'laman" deb his qilishi qanchalik muhimligi aytiladi [6]. O'quvchi o'z fikri inobatga olinadigan, xatolar uchun tanqid qilinmaydigan, o'qituvchi bilan ochiq gaplasha oladigan muhitda o'qisa, uning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi sezilarli oshadi.

Bu tushuncha, ayniqsa, hozirgi zamon maktablari uchun juda muhim. Talabalar kengashi, taklif qutilari, ochiq suhbatlar, psixologik xizmatlar o'quvchilarning maktabga nisbatan iliq munosabatlarini oshiradi. Termiz shahridagi Prezident maktabida shu kabi yondashuvlar amalda bor, bu esa yuqori motivatsiyani saqlab turishga yordam beradi.

Maktab iqlimi nazariyasi

Kohen va hamkasblari maktabning umumiy iqlimiga o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini, jumladan, intizom, sinf muhitidagi hurmat, xavfsizlik darajasi o'quvchilarning natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatishini isbotlagan [4].

Yaxshi iqlim bo'lgan maktablarda, odatda, ko'ngilsiz hodisalar kam bo'ladi, o'quvchilar darsga faol qatnashadi, o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqoti ishonchga asoslanadi.

Bu nazariya, aslida, maktab rahbariyati va o'qituvchilarga shuni eslatadi: ba'zan kichik detallar – tabassum, xonadagi tartib, adolatli baholash, oddiy suhbat o'quvchilar farovonligida juda katta o'rin tutadi.

Travma-informirlangan ta'lim yondashuvi

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda "travma-informirlangan maktab" modeli joriy etilmoqda. Bunda maktab xodimlari o'quvchilarda yashirin stress yoki psixologik og'riqlar bo'lishi mumkinligini inobatga oladi. Dars jarayonida ham, tarbiyaviy ishlarda ham bolalarning hissiy holati birinchi o'ringa qo'yiladi.

Bu yondashuvning asosiy g'oyasi oddiy: **"O'quvchi o'zini xavfsiz his qilmasa u o'qiy olmaydi"**. Shuning uchun maktab qat'iy jazodan ko'ra tushuntirishni afzal ko'radi; suhbatlar orqali ishonch hosil qiladi; har bir bolaga individual yondashadi.

O'z-o'zini boshqarish nazariyasi

Zimmermanning fikriga ko'ra, o'quvchi o'zi maqsad qo'yishni, darsga tayyorlanishni, xatolarini tahlil qilishni o'rgansa, uning o'rganish sifati ko'tariladi [16]. Lekin bu faqat qulay muhitda ro'y beradi. Stress bo'lgan joyda o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalari rivojlanmaydi.

Shu sababli xavfsizlik va farovonlik – faqat "qo'shimcha omil" emas, balki mustaqil o'quvchi shakllanishining sharti hamdir.

Nevrologik tadqiqotlardan olingan asoslar

Zamonaviy nevrologiya shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda xavfsizlik hissi bo'lsa, miya "o'rganishga mos" holatga o'tadi. Aksincha, stress gormoni kortizol ko'payganda miyaning o'rganish bilan bog'liq hududlari sekin ishlay boshlaydi.

AQSh Milliy Tibbiyot Akademiyasi ma'lumotlariga ko'ra, qo'llab-quvvatlovchi maktabda o'quvchilar natijalari 20-30% yaxshilanishi mumkin, xavotir darajasi pasaygan maktablarda esa darsga qatnashish ko'rsatkichlari ko'tarilgan.

Bu natijalar ta'lim jarayonida xavfsizlikning qanchalik kuchli omil ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Maktab xavfsizligi tushunchasi va uning komponentlari

Maktab xavfsizligi tushunchasi nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy xavfsizlikni ham o'z ichiga oladi. Jismoniy xavfsizlik binoning texnik holati, yong'in xavfsizligi, sanitariya sharoitlari va o'quvchilarning jismoniy zo'ravonlikdan himoyalanganligini nazarda tutadi. Psixologik xavfsizlik esa bolalarning his-tuyg'ulariga hurmat, o'qituvchilar va tengdoshlari tomonidan psixologik zo'ravonlikdan himoya, stressli vaziyatlarda qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy xavfsizlik oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik, bolalarning ijtimoiy moslashuvi va ularning huquqlarining himoyasini ta'minlashdir.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning Bolalar fondi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti maktab xavfsizligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqqan. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Xavfsiz va sog'lom maktab muhiti uchun ko'rsatmalar"da ta'kidlanishicha, xavfsiz muhit nafaqat jismoniy, balki psixologik va emotsional jihatdan ham himoyalangan muhitni o'z ichiga olishi kerak.

Bronfenbrenerning ekologik tizimlar nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bola xavfsizligi faqat maktabning ichki sharoitlari bilan belgilanmaydi. Oila, mahalla, jamiyatdagi munosabatlar va maktabning ular bilan hamkorligi ham bolalarning o'zini qanchalik himoyalangan his qilishiga bevosita ta'sir qiladi. Ya'ni, maktabdagi xavfsizlik masalasi kengroq ijtimoiy tizimning bir bo'laki sifatida qaraladi. Agar o'quvchi maktabda tinch bo'lsa-yu, uyida yoki atrof-muhitda beqarorlik bo'lsa, bu uning umumiy psixologik holati va o'qishga munosabatiga ta'sir qiladi.

Shuningdek, Shonkof tomonidan ilgari surilgan "toksik stress" nazariyasi bolalar uzoq davom etadigan xavotir yoki qo'rquv holatida bo'lsa, ularning miyasi o'rganish jarayoniga to'liq qo'shila olmasligini ko'rsatadi. Stress darajasi yuqori bo'lgan bolalarda diqqat pasayadi,

xotira sustlashadi va darsdagi faollik kamayadi. Shu sababli, psixologik xavfsizlik jismoniy xavfsizlik bilan bir qatorda o'quv natijalariga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Nevrologik asos: Garvard universitetining Rivojlanayotgan Bolalar Markazi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, doimiy stress va xavfsizlik hissizligi bolalarning miya rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xususan, frontal korteksning faoliyatini susaytiradi, bu esa, o'rganish, diqqat va xotira jarayonlariga putur yetkazadi [3].

Amaliy misol: Termiz shahridagi Prezident maktabida bolalarni himoya qilish va farovonlik siyosati (Safeguarding and Well-being Policy) joriy etilgan bo'lib, unda bolalarning barcha huquqlari himoyalangan. Maktabda bolalar fikri tinglanadi (masalan, Talabalar Vakillari Kengashi, taklif qutisi, Telegram-bot orqali), shaffof shikoyatlar tizimi mavjud, muntazam ravishda bolalarni himoya qilish bo'yicha treninglar o'tkaziladi.



**1-rasm. Takliflar qutisi
(Termiz Prezident maktabi arxividan)**

Takliflar qutisi o'quvchilarga o'z fikr, ehtiyoj va tashvishlarini anonim tarzda bildirish imkonini beruvchi muhim mexanizmdir. Ushbu jarayon maktabda ochiq muloqotni kuchayti-

radi, o'quvchi – o'qituvchi – ma'muriyat o'rtasida ishonchli aloqalar shakllanishiga xizmat qiladi hamda Cohen (2009) ta'kidlaganidek, ijobiy maktab iqlimini rivojlantiradi. Shuningdek, Bronfenbrennerning ekologik yondashuviga mos ravishda, o'quvchi ovozi tinglanishi ularning psixologik xavfsizligini mustahkamlaydi va maktab hayotida faol ishtirokini oshiradi. Takliflar asosida muammolarni erta aniqlash, muhitni yaxshilash, boshqaruvni shaffoflashtirish mumkin bo'ladi. Natijada, ta'lim sifati, o'quvchilarning qoniqishi, faolligi hamda akademik yutuqlari oshib, maktabning barqaror rivojiga sezilarli hissa qo'shadi.

Farovonlikning bilim olishga ta'siri

Farovonlik tushunchasi bolalarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy sog'ligini ta'minlashni anglatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, farovon muhitda o'sgan bolalar o'qishga ko'proq motivatsiyaga ega bo'lib, ularning diqqati va xotirasi yaxshi rivojlanadi. Masalan, muntazam va sifatli ovqatlanish, jismoniy faollik va yetarli uyqu bolalarning kognitiv qobiliyatlarini oshiradi.

Psixologik qulay muhit esa bolalarning o'ziga ishonchi va o'zini anglash qobiliyatini oshiradi. Godenov ta'kidlagan “tegishlilik hissi” (sense of belonging) ham farovonlikning muhim qismidir. O'quvchi o'z fikri qadrlanishini, o'qituvchi va tengdoshlar tomonidan qabul qilinishini sezsa, uning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi sezilarli kuchayadi. Shunday muhitda o'quvchilar darsda faolroq qatnashadi, o'zini erkinroq ifoda etadi va mas'uliyatni chuqurroq his qiladi. Bu jarayon psixologik farovonlikning bevosita ko'rinishlaridan biridir. Maslovning ehtiyojlar piramidasi asosida, bolalarning asosiy fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlari qondirilgandan so'ng, ular o'qish va o'zlashtirishga ko'proq e'tibor beradilar [8]. Shuningdek, psixologik qo'llab-quvvatlash bolalarni stress va depressiyadan himoya qiladi, bu esa, ularning akademik yutuqlariga ijobiy

ta'sir ko'rsatadi. Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini boshqarish nazariyasi ham farovonlik va o'qish jarayoni o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi. Farovon muhitda o'quvchilar maqsad qo'yish, darsga tayyorgarlik ko'rish, o'z natijalarini tahlil qilish kabi ko'nikmalarni samaraliroq rivojlantiradi. Stress darajasi past bo'lganda o'quvchi o'z vaqtini boshqarishi, mustaqil o'qish strategiyalarini tanlashi va mas'uliyatni his qilishi osonlashadi.

Ijtimoiy-hissiy o'rganish (SEL)ning ahamiyati: CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tashkilotining 2011-yilda o'tkazgan meta-tahliliga ko'ra, SEL dasturlariga qatnashgan o'quvchilar akademik ko'rsatkichlari 11 foizgacha oshgan, shuningdek ularning xatti-harakatlari va stress bilan kurashish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilangan. So'nggi yillarda ko'plab davlatlarda qo'llanayotgan travma-informirlangan ta'lim yondashuvi Blaustin va Kinniburg farovonlikni ta'minlashning yanada chuqur pedagogik uslubini taklif etadi [1]. Bu modelga ko'ra, ba'zi o'quvchilar yashirin stress, qo'rquv yoki emotsional og'riqlar bilan darsga kelishi mumkin. Shunday sharoitda maktabning vazifasi – qattiq nazorat emas, balki ishonchli, qo'llab-quvvatlovchi va barqaror muhit yaratishdir. Bu esa, o'quvchilarning o'zini xavfsiz his qilishini va o'qishga faolroq jalb etilishini ta'minlaydi.

Amaliy misol: Prezident maktabida o'quvchilarning hissiy-salbiy holatlari muntazam so'rovnomalar (annual well-being survey) orqali monitoring qilinadi. Ushbu so'rovnomalar o'quvchilarning ruhiy holat, stress darajasi, motivatsiyasi va maktab muhitidan qoniqish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. So'rovnoma natijalari tahlil qilinib, pedagoglar, psixologlar va ma'muriyat ishtirokida muhokama qilinadi.

Natijalarga ko'ra, aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun tegishli choralar ishlab chiqiladi, masalan: qo'shimcha psixologik sessiyalar tashkil etish, ota-ona bilan hamkor-

likni kuchaytirish, o'quvchining yuklamasini qayta ko'rib chiqish yoki profilaktik suhbatlar o'tkazish.

Bundan tashqari, maktabda har yili "Xavfsizlik va farovonlik" qo'mitasi a'zolari tomonidan treninglar, motivatsion uchrashuvlar, mahorat darslari va psixologik salomatlik bo'yicha seminarlar tashkil qilinadi. Ushbu tabdirlar o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini boshqarish, stressni kamaytirish va ijobiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Maktabda shuningdek, o'quvchilarga zarurat tug'ilganda vaqtida psixologik yordam ko'rsatish uchun doimiy faoliyat yurituvchi qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud.



2-rasm. Farovonlik va xavfsizlik qo'mitasi tomonidan bolalarni himoya qilish va xavf-xatar sezilganda xabar berish bo'yicha seminar-treningi (Termiz Prezident maktabi arxividan)

Ushbu seminar-trening maktabda bolalarni himoya qilish bo'yicha barqaror tizimni shakllantirish, o'quvchilarda xavf-xatarni erta aniqlash va mas'ul shaxslarga o'z vaqtida xabar berish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Trening jarayonida o'quvchilar, o'qituvchilar va xodimlarga xavfsizlik protokollari, xatti-harakat indikatorlari va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri murojaat qilish tartibi amaliy misollar asosida tushuntiriladi. Bu faoliyat Shonkoff (2012) va Maslow (1943) ta'kidlaganidek, bolaning emotsional farovonligi va asosiy xavfsizlik ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, maktabda xavfsizlik madaniyati mustahkamlanadi, zo'ravonlik, beparvolik yoki psixologik bosim holatlarini erta aniqlash imkoniyati oshadi hamda ta'lim muassasasining umumiy farovonligi va barqaror rivojiga sezilarli hissa qo'shadi.

Xalqaro tajribalar

Finlandiya, Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlarda maktab xavfsizligi va farovonligiga katta ahamiyat beriladi. Finlandiyada maktablar bolalarning shaxsiy rivojlanishi va farovonligi asosida tashkil etilgan. O'qituvchilar bolalarning his-tuyg'ulariga alohida e'tibor beradilar, darslar qisqa va tanaffuslar uzoq bo'ladi. Singapurda maktab binolari zamonaviy va xavfsizlik standartlariga to'liq mos keladi. Yaponiyada esa bolalarga muntazam sog'lomlashtirish choralari ko'riladi, jumladan, maktabda ovqatlanish va jismoniy tarbiya darslariga alohida e'tibor beriladi.

Ushbu mamlakatlarning PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlaridagi yuqori natijalari ularning maktab xavfsizligi va farovonligi siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi. OECD hisobotlariga ko'ra, maktab iqlimi va o'quvchilarning farovonligi bilan ularning akademik yutuqlari o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud.

O'zbekiston maktablarida holat tahlili

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktab xavfsizligi va farovonligini ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Yangi qurilayotgan maktab binolari zamonaviy talablar asosida qurilmoqda, mavjud maktablar esa ta'mirlanmoqda. Shuningdek, maktablarda psixologik xizmat ko'rsatish tizimi joriy etildi. Biroq, ba'zi muammolar hali ham mavjud. Masalan, qishloq joylaridagi maktablarda infratuzilma muammolari, psixologik xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi va o'qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligining pastligi kabi muammolar kuzatilmoqda.

O'qituvchi-talaba munosabatlari: Piyanta tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, sifatli o'qituvchi-talaba munosabatlari, ayniqsa boshlang'ich sinflarda, bolalarning maktabga moslashishi va uzoq muddatli akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [11].

Amaliy yutuq: Termiz Prezident maktabida bolalarni himoya qilish qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, u maktab iqlimi va uning jamiyatga ta'sirini muntazam baholaydi. Maktabda "Raqqamli fuqarolik" (Digital Citizenship) siyosati joriy etilgan, xavfsizlik protseduralari plakatlar shaklida maktab binolariga joylashtirilgan.



3-rasm. Bolalar xavfsizligi va farovonligi qo'mitasi majlisi (Termiz Prezident maktabi arxividan)

Taklif va tavsiyalar

Maktablarda bolalar xavfsizligi va ularning farovonligini ta'minlash murakkab jarayon bo'lsa-da, ayrim amaliy qadamlar bu borada sezilarli natija berishi mumkin. Avvalo, maktab binolari zamonaviy xavfsizlik talablariga mos bo'lishi zarur. UNESCO tavsiyalariga ko'ra, maktab infratuzilmasi nafaqat jismoniy himoya, balki bolalarning o'zini qulay his qilishiga xizmat qiladigan tarzda loyihalaniishi kerak [13].

Shuningdek, psixologik xizmatlarni kuchaytirish bugun nihoyatda muhim. Har bir maktabda hech bo'lmaganda bir nafar malakali psixolog bo'lishi bolalarga o'z vaqtida yordam berish imkonini kengaytiradi. Bu jarayonda o'qituvchilarning roli ham katta: Piyanta ta'kidlaganidek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi sog'lom munosabat bolalarning o'qishga munosabatini sezilarli darajada o'zgartiradi. Shu bois, o'qituvchilar uchun psixologik-pedagogik malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etib borish maqsadga muvofiqdir.

Farovonlikning yana bir muhim tomoni – bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish. JSST ma'lumotlariga ko'ra, muntazam jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish va ruhiy barqarorlik o'quvchilarning diqqat va o'rganish qobiliyatini oshiradi. Maktablar bu jarayonda o'z o'rnini borligini unutmasligi lozim [15].

Ota-ona va maktab o'rtasidagi hamkorlik ham farovonlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Ochiq muloqot, o'zaro fikr almashish va hamkorlikdagi tadbirlar bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini yanada ijobiy qiladi.

Bundan tashqari, bolalarni himoya qilish siyosatini muntazam ravishda qayta ko'rib

chiqish va kerak bo'lsa yangilab borish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan ko'ra olishga yordam beradi.

Ijtimoiy-hissiy o'rganish (SEL) dasturlarini joriy etish esa farovonlikning eng samarali yo'llaridan biridir. Durlak tadqiqotlari bunday dasturlar nafaqat o'quvchilarning o'quv ko'rsatkichlarini, balki ularning o'zini tutish, muammoli vaziyatlarga munosabati va stressni boshqarish qobiliyatlarini ham yaxshilashini ko'rsatgan.

Umuman olganda, maktabda xavfsizlik va farovonlikni ta'minlash nafaqat bolalarning sog'lig'i uchun, balki ularning o'quv jarayoni samaradorligi uchun ham asosiy omillardandir. O'zini xavfsiz his qilgan, ehtiyojlari e'tiborga olingan o'quvchilar darslarda faolroq bo'ladi, o'zini ishonch bilan tutadi va yuqori natijalarga erisha oladi. Bu esa, ularning kelgusidagi shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natija berayotgani seziladi. Infratuzilmaning yangilanishi, psixologik xizmatlarning kengaytirilishi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar maktablarning umumiy iqlimini yaxshilab bormoqda.

Termiz Prezident maktabi misolida ko'rib turganimizdek, tizimli yondashuv, o'quvchilarning ovozi va ishtirokini qadrlash, muntazam ravishda farovonlikni nazorat qilish kabi amaliy choralar o'quvchilar hayotida haqiqiy ijobiy o'zgarishlar kiritadi. Kelgusida bu tajribalarni boshqa maktablarga ham joriy etish bolalar farovonligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Blaustein M. E., Kinniburgh K. Treating Traumatic Stress in Children and Adolescents: How to Foster Resilience Through Attachment, Self-Regulation, and Competency. – New York: Guilford Press, 2018.
2. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
3. Center on the Developing Child at Harvard University. The Science of Early Childhood Development. – 2007. – URL: <https://developingchild.harvard.edu/resources/inbrief-science-of-eed/> (дата обращения: 05.12.2024).
4. Cohen J., McCabe E. M., Michelli N. M., Pickeral T. School Climate: Research, Policy, Practice, and Teacher Education // Teachers College Record. – 2009. – Vol. 111, No. 1. – P. 180-213.
5. Durlak J. A., Weissberg R. P., Dymnicki A. B., Taylor R. D., Schellinger K. B. The Impact of Enhancing Students' Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // Child Development. – 2011. – Vol. 82, No. 1. – P. 405-432.
6. Goodenow C. Classroom Belonging among Early Adolescent Students: Relationships to Motivation and Achievement // Journal of Early Adolescence. – 1993. – Vol. 13, No. 1. – P. 21-43.
7. Jensen E. Teaching with Poverty in Mind: What Being Poor Does to Kids' Brains and What Schools Can Do About It. – Alexandria, VA: ASCD, 2013.
8. Maslow A. H. A Theory of Human Motivation // Psychological Review. – 1943. – Vol. 50, No. 4. – P. 370–396.
9. OECD. PISA 2015 Results (Volume III): Students' Well-Being. – Paris: OECD Publishing, 2017.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Maktab xavfsizligi standartlari. – Toshkent: XTV nashriyoti, 2023.
11. Pianta R. C. Teacher-Student Relationships and School Adjustment. – New York: Routledge, 2016.
12. Shonkoff J. P., Garner A. S. va boshq. The Lifelong Effects of Early Childhood Adversity and Toxic Stress // Pediatrics. – 2012. – Vol. 129, No. 1. – e232-e246.
13. UNESCO. Guidelines for Safe and Healthy School Environments. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377932> (дата обращения: 05.12.2024).
14. UNICEF. Child-Friendly Schools Manual. – New York: United Nations Children's Fund, 2019. – URL: <https://www.unicef.org/media/65886/file/Child-Friendly-Schools-Manual.pdf> (дата обращения: 05.12.2024).
15. World Health Organization. School Health Guidelines. – Geneva: WHO, 2020. – URL: <https://www.who.int/teams/maternal-newborn-child-adolescent-health-and-ageing/adolescent-health/school-health-guidelines> (дата обращения: 05.12.2024).
16. Zimmerman B. J. Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective // In: Boekaerts M., Pintrich P. R., Zeidner M. (eds.). Handbook of Self-Regulation. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 13-39.